



SHARQ UYG'ONISH DAVRI VA TA'LIM –TARBIYA MASALALARI

Andijon davlat pedagogika instituti

Aniq va Tabiiy fanlar fakulteti

Biologiya ta'lim y o`nalishi 302- guruh talabalari

Ahmadjonova Munisaxon

Mamasidiqova Barnoxon

ANNOTATSIYA: Sharq uyg'onish davrida ta'lim va ma'rifat ahamiyati ortdi. O'zbek adabiyoti va madaniyati rivojlana boshladi. Jamiyatda yangilanish, ilm-fan va tafakkur taraqqiyoti uchun asos yaratildi, yosh avlod tarbiyasi ustuvor vazifa bo'ldi.

Kalit so'zlar: Turkiston, O'rta Osiyo, Zardushtiylik ta'limoti, bola tarbiyasi, "Avesto", Muhammad Xorazmiy, Ahmad Farg'oniy, Abu Rayxon Beruniy, Ibn Sino, Abu Nosir Forobiy.

ANNOTATION: During the period of the Eastern Renaissance, the importance of education and enlightenment increased. Uzbek literature and culture began to develop. The foundation for renewal in society, the development of science and thought was created, and the education of the younger generation became a priority.

Keywords: Turkestan, Central Asia, Zoroastrianism, child education, "Avesta", Muhammad Khorezm, Ahmad Ferghani, Abu Raykhan Beruni, Ibn Sina, Abu Nasir Farabi



ANNOTATION: During the period of the Eastern Renaissance, the importance of education and enlightenment increased. Uzbek literature and culture began to develop. The foundation for renewal in society, the development of science and thought was created, and the education of the younger generation became a priority.

Keywords: Turkestan, Central Asia, Zoroastrianism, child education, "Avesta", Muhammad Khorezm, Ahmad Ferghani, Abu Raykhan Beruni, Ibn Sina, Abu Nasir Farabi

O'rta Osiyoda turli fanlar qadimdan rivojlanib, unda dunyoga tanilgan qomusiy olimlar barakali mehnat qilib kelgan bo'lsalarda bu olimlarning tabiatshunoslik o'qitish uslubiyotiga oid fikrlari ko'rsatmalari xaqida ma'lumotlar yetarlicha emas.

Turkistondagi ta'lim ishlari mazmuni bilan tanishar ekanmiz (XV-XIX asrlar) bu joylardagi maktab, madrasalarda tabiatshunoslik biologiya fanlari deyarli o'g'itilmaganligini ko'ramiz. Shu boisdan Turkiston olkasida tabiatshunoslik (biologiya) o'qitish uslubiyotiga oid ma'lumotlarga ega emasmiz. Biroq o'tmishda yashab ijod etgan Muhammad Xorazmiy, Ahmad Farg'oniy, Abu Rayxon Beruniy, Ibn Sino, Abu Nosir Forobiy, Ulug'bek, Az-Zamahshariy kabi qomusiy olimlarimiz jahon ilm faniga, madaniyatini rivojlanishiga ulkan hissalarini qo'shganligini bilamiz. Yuqorida nomlari zikr gilingan allomalarning _ ilmiy_ meroslarining ayrim tomonlari organilgan. Biroq bu buyuk insonlarning pedagogik qarashlari atroflicha o'rganilgan emas. Undan tashqari O'rta Osiyo respublikalarining ruslar iste'losidan keyin mahalliy millatning ma'naviy merosini mensimaslik, uni yo'q qg'ilish ishlari kuchaydi. Mutafakkir olimlarimiznin lmiy asarlari yo'q qilina boshladi. Ayniqsa, arab imlosidagi yozuvning bekor qilinib rus imlosiga o'tilishi munosabati bilan O'rta Osiyo tillarida jkmladan O'zbek tilida yozilgan nodir kitoblarning yoppasiga yo'qotish, yog'ish, ko'mish ishlari kuchayib



o'tmishimizdan qolgan ilmiy merosimizni o'rganish, milliy axloq- odobimiz va tarixiy an'analarimizdan maxrum bo'ldik

O'zbekistonda yoshlarga ta'lim berishda arab imlosidan lotin imlosiga undan yana qayta rus imlosiga o'tilishi xalqimizni arab imlosida bitilgan asarlarni o'qib o'rganish imkoniyatlarini yo'qqa chiqardi. Oqibatda o'tmishdan saglanib qolgan arab imlosida bitilgan fan, adabiyot va san'atga bag'ishlangan mo'tabar asarlarni o'qiyolmaydigan avlodlarni paydo bo'lishiga olib keldi.

Shunday bo'lsada oz jonini xav-xatarga qo'yib bo'lsa ham ajdodlarimiz yaratgan ma'naviy boyliklar bo'lmish arab' imlosida bitilgan kitoblarni yashirib, saqlab qolgan fidokor insonlar saxovoti tufayli hozirgi paytda o'tmishdagi allomalarimiz yaratgan ba'zi mo'tabar kitoblardan foydalanish imkoniyatiga ega bo'ldik. Mazkur adabiyotlarni o'rganar ekanmiz qomusiy olimlarimizning turli fanlarga oid ilmiy merosi bilan bir qatorda ularni ta'lim tarbiya ishlariga oid qator fikr mulohazalari borligini ko'ramiz. Chunki O'rta Osiyoda insonga bo'lgan e'tibor albatta uni tarbiyalash masalalari bilan chambarchas qo'shib olib borilgan. Binobarin, qomusiy olim. bola tarbiyasi " unga ta'lim berish borasidagi qarashlarini shubxasiz turli fanlarni o'qitish uslubiyotining rivojlanishiga salmoqli xissa qo'shadi. O'rta Osiyoda tabiat va uni o'g'itishga bo'lgan dastlabki qarashlar Zardushtiylikning mugaddas kitobi bo'lgan Avestoda berilgan. Markaziy Osiyoda yashagan xalqlarning islomgacha bo'lgan dini Zardushtilik deyilib uning asoschisi Shargning birinchi faylasufi, donishmandi Zardusht bo'lgan. Zardusht eramizgacha bo'lgan 589-512 yillarda yashab Xorazm tuprog'ida tug'ilgan. Yoshligidanoq u o'z qavmi orasida yurib ularning urf-odatlarini o'rgangan., Malumki_ qadimgi ota buvolarimizni turli dinlarga e'tiqoc qilganligi har bir qabilaning o'z xudosi bo'lganligi oqibatida turli qabilalar orasida tez-tez nizolar, qirg'inlar sodir bo'lib turgan.

Zexni o'tkir Zardusht ko'p xudolikni zararini to'la tushinib etgan va 20 yoshidan boshlab kishilar orasida yakka xudolik g'oyasini targ'ib etadi. U o'



qarashlarini 1200 bobdan iborat bo'lgan muqaddas <Avesto> deb atalgan kitobda bayon etadi. Bu kitob hayotning barcha sohalari bo'yicha atroflicha ma'lumot beradigan ulkan kitobdir. Unda Markaziy Osiyo xalqlarining eng qadimgi urf odatlari, ibodatlari paytida aytiladigan oyatlari, go'shiqlari qadimgi xalq og'zaki jodidagi dostonlar, dexqonchilik, chorvachilik xunarmandlik, savdo-sotiqqa bo'lgan qarashlar lavxalar beriladi. Undar tashqari <Avesto> sahifalarida jo'g'rofiya, falakiyot, biologiya, tibbiyot va boshqa fanlarga doir qarashlar yozilgan. Ayniqsa kitobda tabiatshunoslik: bo'lgan etibor diqqatga sazovordir. "Avesto"da tabiatshunoslikka tibbiyo va ekologiyaga oid yo'riqlarda yaxshi fikrlar mavjud. Tibbiyotga oid fikrlar turli kasaliklar, ularni oldini olish, davolash, tabiblarni axlogi va tabobatga oid ba'zi qonunlar shaklida bayon etilgan. Ekologiyaga oid yoriqlarda esa yer, suv, xona, badan va kiyim kechaklarni, ovqatlarni toza saqlash zarurligi ko'rsatiladi. Inson yoki hayvonlar o'ligi tushgan soy, arig, quduqlarni bir necha martadan obdon tozalash, qatron qilish kabilar talab etiladi. Bu talablar albatda hozirgi zamon ekologiyasini ham talablaridir. Zardushtiylik ta'limotiga e'tiqod qilgan xalqlar shubhasiz bu yo'riqlardan foydalanib o'z farzandlariga ta'lim-tarbiya berishda ham bu yo'riqlardan foydalanishgan. Zardushtiylikda erni iflos qilish gunox xisoblangan erni iflos qilgan kishilar 400 qamchi urish bilan jazolanganlar. "Avesto" da tashqi muhit sharoitlarini muhofaza qilish axlatlarni iflos joylarni tuproq bilan ko'mish, iflos joylarni kiyim kechaklarni sirka, kul, piyoz va boshqa Ma'lumki, jahon fani va madaniyatining rivojlanishiga O'rta Osiyoda yashab, ijod etgan qomusiy olimlarning salmukli xissalari bor.

O'rta Osiyoda kadimdan fan, madaniyat tarakkiy etib, Xorazm, Buxoro, Samarqand kabi shaxarlarda yirik tadqiqot markazlari tashkil etilgan bo'lib, bu joylarda Xorazmiy, Kindiy, Forobiy, Beruniy, Ibn Sino. Umar Xayyom kabi qomusiy olimlar ishlaganlar. Bular o'zlarining chukur ilmiy izlanishlari natijalari bilan deyarli barcha aniq fanlarga asos solib, bu fanlarni yanada rivojlanishiga sababchi bulganlar. O'rta Osiyolik qomusiy olimlar o'z



qarashlarida inson hayotini yanada boyitish, takomillashtirishda fanning orni va roli juda beqiyos ekanligini hisobga olib ish yuritganlar. Shu boisdan ular fan yutuqlaridan Komil inson tarbiyalash masalalariga e'tiborni kuchaytirganlar. Bu xol albatta ularni inson tarbiyasiga oid qarashlarini ifodalagan asarlarini paydo bulishiga sabab bo'lgan. Shu boisdan biz bu qomusiy olimlarning nafaqat olimlar balki, maxoratli o'kituvchilar bo'lgan deb ayta olamiz. Binobarin, mazkur olimlarning asarlarida tabiat va uni o'gitishga oid qarashlari shubxasiz necha-necha zamonlar turli madrasalar, maktablardagi ta'lim- tarbiya jarayonida qo'llanilib kelingan. Qo'yida qomusiy olimlarning tabiat va uni o'rganishga oid qarashlari haqida to'xtalamiz.

Abu Nasr Forobiy Sirdaryo boyidagi O'tror (Forob) shaxrida tugulgan. U yoshlik davrlarida Buxoro, Shosh, Bogdod shaxarlarida uzoq yillar ilm oladi. Bu erlarda u turli tillarin xam o'rganadi. Yunon faylasuflarining asarlarini mutoola gilish, o'z davrining mashxur olimlari bilan muloqatlar qilish bo'lguvsi gomusiy olimning shakllanishiga katta ta'sir etgan. Oqibatda Forobiy oz davrining birinchi faylasufi. qomusiy olimi, musiqachisi, shoiri bo'lib tanilgan. U "Falsafadan oldin nimani bilish kerak", "Substantsiya haqida", "Logikaga kirish" kabi 160dan ortiq risolalar yaratgan.

Forobiy qadimgi dunyoning mashxur olim i Arastuning asarlarini organib,unga sharxlar yozish, targ'ib gilish, riyozat, tibbiyot. alximiya, falakiyot kabi tabiiy fanlar bilan ham jiddiy shugullangan. Forobiy olamni yer, suv, olov va havo kabi to'rt unsur dan iborat ekanligini ko'rsatadi. Mavjudotning eng buyuk va etuk mahsuli insondir deydi. Forobiyning

pedagogik garashlari birqancha asarlarida bayon etilgan. ta'lim masalalariga, xususan, o'gitishning ta'moillari va metodlariga alohida e'tibor qaratgan. U bilish jarayoni avval sezgilardan boshlanishi shu sababli ham ta'limda doimo ko'rgazmalilikka e'tbor berish zarurligini ta'kidlaydi. Forobiy talimda oquvchilarning sezgi organlariga ta' sir etuvchi tabiatdagi narsa va



hodisalardan foydalanish orqali dastlabki idrokni hosil qilish, so'ngra xosil bo'lgan bu bilimlar orasidagi o'zaro bog'likliklarni mantiqiy tafakkur qilish bilan o'rganish kerakligini ko'rsatadi. Forobiyning yuqoridagi fikrlari hozirgi zamon ta'limidagi eng muhim tamoillaridan bolmish - ko'rgazmalilikni taklif etishidir. U o'quvchiga tabiat haqida bilimlar o'rgatishda mumkin qadar ko'prog ko'rgazma qurollardan, tabily ob'ektlardan foydalanishni, so'ngra bu ob'ktlar xususiyatlarini mantiqiy fikrlash orqali yanada yaxshi idrok etish maqsadga muvofiq ekanligini ko'rsatadi orqali yuqadigan kasalliklar ularni yo'qotishga oid ma'lumotlar beriladi. Foydali hayvonlarni muhofaza etish takidlanadi. "Avesto" da sanitariya gigiena qoidalariga amal qilish, badan tarbiya bilan muntazam shug'ullanish, soch irnoqlarni o'stirmay tez-tez olib turish, me'yori bilan ovqatlanish kabilar haqida ham ko'rsatmalar mavjud. Undan tashqari yaqin qarindoshlarni o'zaro oila qurishlari man etilgan bo'lib, bu narsani xozirgi zamon genetikasi ham tasdiqlaydi.

Yuqoridagilardan ko'rinib turganidek Avesto sharqdagi yashagan ajdodlarimizning ma'naviy, g'oyaviy, mafkuraviy va iqtisodiy qarashlarini o'z ichiga oladi. Shubxasiz ushbu ta'limot o'sha davr yoshlariga ta'lim-tarbiya berishning muqaddas dasturi xisoblangan. Ayniqsa unda tabiat, inson va uning salomatligi to'g'risidagi arashlar bolalarga tabiatni va o'z tanasini tuziishi, tabiatni asrash bilan bir qatorda o'z gavdasini gigienik qoidalar asosida parvarishlab borishni ilmiy-uslubiy yo'llarini ko'rsatadi. Demak, O'rta Osiyoda eramizgacha bo'lgan qadimgi davrlardan boshlab bolalarga tabiat xaqidagi bilimlar va tarbiya berishning metodikasi hozirgi zamon talablariga mos holda bayon etilgan desak mubolag'a bo'lmas. O'sha zamon o'qituvchilari shubxasiz oz mashg'ulotlarida o'quvchilarga yuqoridagi ko'rsatmalar asosida bilim va tarbiya berganligi aniq.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati





1. Qodiriy O. "O'zbek mintaqasining tarixi" – Sharq uyg'onish davri va uning ijtimoiy-siyosiy rivojlanishi haqida.
2. Abdulla Qodiriy, Hamid Olimjon asarlari (ma'rifat va ta'lim-masnalari yuzasidan).
3. Valikhon Yo'ldoshev. "Sharq uyg'onish davri ijtimoiy taraqqiyoti" (O'zbekiston Milliy Universiteti nashri).
4. Internetdagi ilmiy bazalar:

